

## INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY DARSLARDAN FOYDALANISH

*Jurayeva Nazimaxon Maxammadjonovna*

*Fargona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi*

*Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda noan'anaviy darslardan foydalinishda pedagogik mahorat xususida yoritib berilgan va uning afzalliklari tahlil etib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** informatika, texnika fanlari, innovatsion texnologiya, texnik vositalar, ma'ruza usuli, an'anaviy darslar.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lif muassalaridagi o'quv jarayonini jadallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu o'qitishni individuallashtirish va o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bunga erishish esa o'qitishning faol shakllari va usullarini joriy qilish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiyishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini tashkil etish hamda talabalar mustaqil ta'limiini tashkil etishning yangi va samarali shakllarini yaratishni taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lif muassasalarining zamonaviy texnik vositalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar va o'quv laboratoriya jihozlari bilan qaytadan ta'minlanishi talabalarning bilim samaradorligini oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida pedagog-o'qituvchilar zimmasiga yana bir qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kun o'qituvchisi endi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnik vositalar bo'yicha ham zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurdir. Shuningdek bugungi kun o'qituvchisi an'anaviy o'qitish usullarini yanada takomillashtirib, informatika fanini o'rgatishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga izchil qo'llashi va jadal rivojlanib, shakllanib borayotgan o'qitish usullaridan muntazam xabardor bo'lib turish muhimdir.

Aksariyat hollarda informatika fanini o'qitishda ma'ruza usuli qo'llaniladi. Bu usul ayrim talabalarning darsda faolligini susaytiradi va tinglovchining diqqatini shu mavzuga va u bilan bog'lik bo'lgan texnik jarayonlarni tushunishga jalb qilish qiyin ekanligi ma'lum. Endilikda bizning nazarimizda mavzuni bayon qilishda va yoritib berishda ko'proq axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalinish o'qitish samaradorligini yanada yaxshilaydi va oshiradi. Shunday ekan informatika va texnika fanlarini o'qitishga e'tiborni jalb qiladigan ayrim xulosalar to'g'risida fikr yuritamiz.

O'rganilayotgan mavzulariga doir materiallarning elektron variantlarini internetga joylashtirish ham o'qitish sifat va samaradorligini oshirish omillaridan biridir.

O'quvchilar mustaqil o'rganish jarayonida internetdan foydalanib berilgan topshiriqlarni bajarish uchun izlanish olib boradi, yoki ma'lum uzrli bir sabablarga ko'ra, darsga qatnasha olmagan talaba elektron manbalardan kerakli ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi. Bu talabaga qulaylik yaratish bilan birga undagi bo'shliqni to'ldirish imkonini beradi.

An'anaviy darsda aksariyat hollarda o'qituvchi gapiradi. Bu esa o'quvchilarning faolligini ma'lum darajada susaytiradi. Noan'anaviy dars esa asosan talabani darsda mustaqil faol ishlashga, erkin fikrlashga va muloqotda bo'lishga imkon beradi. Texnik vositalar yordamida dars o'tish berilgan qisqa vaqtidan unumli foydalanishga sharoit yaratib beradi.

An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalgaloshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiyligi maqsadlarini ishlab chiqish, ularni amalgaloshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi. An'anaviy darslarda ko'rgazmali vosita sifatida plakatlardan foydalanib kelingan bo'lsa, hozirgi paytda kompyuter, slayd, multimedia vositalar kabi zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari keng tadbiq etilmoqda. Noan'anaviy darslarda an'anaviy darsdan farqli ravishda tasvir va tovush uyg'unligi talabaning faolligini va ularning o'tilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi hamda berilayotgan ma'lumotlarning uzoq muddatga xotiralarida saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Eng muhimi har bir talabani mustaqil ishslashga va fikrlashga undaydi.

Informatika va texnika fanlarni o'qitishda axborot – kommunikatsion vositalardan unumli foydalanish va uni dars jarayonida qo'llash uchun eng birinchi o'rinda dogog-o'qituchilarning o'zlari texnik vositalar bilan ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi muntazam ilmiy, ilmiy – ijodiy izlanishda bo'lishi kerak. Aks holda o'qituvchining mehnat samarasi talabga javob bermay qoladi.

Axborot - kommunikatsion vositalarning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, bunda faqatgina dars jarayonida emas, balki darsga tayyorgarlik jarayonida ham o'qituvchining eng yaqin va qulay ko'makchisidir. Bu jihatlari bilan ushbu texnik vositalar o'qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishga hissasi beqiyos kattadir.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish kerakki, darsda texnik vositalardan foydalanish talabaning o'zlashtirish koeffitsentini bir necha barobar oshiradi. Ilmiy asoslarga ko'ra inson taxminan 70 foiz ma'lumotlarni ko'rish va kuzatish orqali oladi. Xususan,

informatika va texnika fanlarini o'rgatishda noa'nanaviy usullarni va axborot - kommunikatsion vositalarni keng joriy etish har bir o'qituvchining kundalik uslubiga aylanishi zarur deb hisoblaymiz. Shundagina biz tayyorlab jamiyatga yetkazib berayotgan kadrlarimiz bugungi kun talabiga javob bera oladigan rakobatbardosh mutaxasislar bo'lib shakllanadi deb o'ylaymiz.

## REFERENCES

1. Topildiyev V.R. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslari. T.: 2015;
2. Podlasiy I.P. Pedagogika. Obshiyе osnovi. Protsess obucheniiY. M., 2005;
3. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Ucheb. dlya stud. vissch. ucheb. zavedeniy: v 2 knigax. M.,2002 y.